

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI DINAMIKASIDA SIYOSIY
INSTITUT VA JARAYONLARNING TAKTIK XIZMATLARI VA
AHAMIYATLARI

Mo‘minov Baxtiyor Yarash o‘g‘li

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi
3-kurs talabasi*

Mardanov Sardorbek Zafar o‘g‘li

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

Abstarct: *In this article, the position, tactical services and important political component features of political institutions and political processes in the dynamics of the “Uzbekiston-2030” strategy are seen, and through analysis, this is clarified and the activity of political institutions is assessed.*

Key words: *Political institution, political process, legality, legitimacy, state, political power, political party, strategy.*

Аннотация: *В данной статье через анализ рассматриваются и уточняются положение политических институтов и политических процессов в динамике стратегии “Узбекистан-2030”, их тактические службы, а также важная политическая составляющая, а также деятельность политических институтов оценено.*

Ключевые слова: *политические процесс, политический институт, законность, легитимность, государство, политическая власть, политическая партия, стратегия.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlarning “O‘zbekiston-2030” strategiyasi dinamikasida pozitsiyasi, taktik xizmatlari va muhim siyosiy komponentlik xususiyatini namoyish etishi ko‘riladi va tahlil orqali bunga aniqlik kiritiladi hamda siyosiy institutlarning faoliyatiga baho beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Siyosiy institut, siyosiy jarayon, legallik, legitimlik, davlat, siyosiy hokimiyat, siyosiy partiya, strategiya.*

Kirish va dolzarbligi: *O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar samaradorligini ta‘minlash ko‘p jihatdan siyosiy jabhada ayniqsa, davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatni*



tubdan takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir.¹¹ Ushbu strategiyasida xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli, va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘giniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatini ta‘minlash maqsadida ushbu strategiya zamonaviy davlat boshqaruvida xalq uchun muhim fundamental va institutsional islohatlarni amalga oshirishda, davlat va xalq faoliyatida muhim hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini ifodalaydi¹². “O‘zbekiston-2030” strategiyasi dinamikasida siyosiy institut hisoblangan davlat, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, siyosiy hokimiyat tuzilmalarining va davlat siyosiy hayotidagi siyosiy jarayonlarning komponentlik o‘rni muhim hisoblanadi. Ushbu siyosiy institutlar va jarayonlar o‘zining taktik xizmatlari orqali strategiyada ko‘rsatilgan maqsad va yo‘nalishlarda tuzilmaviy element sifatida pozitsiyalarini ko‘rsatadi.

Davlat fenomeni va uning siyosiy institut sifatidagi pozitsiyasi. Davlat jamiyatning markaziy va integratsiyalovchi siyosiy instituti hisoblanadi. U ijtimoiy jarayonlarni jamiyat maqsadlari asosida muvofiqlashtirish va boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan, shuningdek oliy hokimiyat vakolatlarini bir joyga to‘playdigan, ularni amalga oshiradigan institutdir.¹³ Har qanday siyosiy jarayonlarning yetakchi subyektini bu – davlatdir.¹⁴ Davlat siyosiy institut sifatida tashkillashtirish, tartibga solish, nazorat qilish, personalni boshqarish, tashkiliy-tuzilmaviy maqsadlarni amalga oshirish funksiyasiga ega.¹⁵

Siyosiy partiya definitsiyasi va uning dominantlik roli. Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi va o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir.¹⁶ Turli hududlarda davlat va jamiyat qurilishida

¹¹ Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi,- Toshkent: “O‘zbekiston” 2021. 86-b.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

¹³ M.Qirg‘izboyev. Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurtlari talabalarini uchun darslik, -Toshkent “Sharq”, 2024.-146-b

¹⁴ K.Mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili: Ma‘ruza. 2024-yil 3-b.

¹⁵ K.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi asoslari: Ma‘ruza. 2022-yil 2-b.

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” gi 1996-yil 12- dekabrda 337-I-sonli qonuni <https://lex.uz/docs/-54191?ONDATE=07.01.2020>



partiyalarning roliga turlicha munosabat shakllanganligini ko‘rish mumkin. Zamonaviy siyosiy partiyalar boshqa siyosiy tashkilot va jamoat birlashmalardan quyidagi asosiy belgilari bilan achralib turadi:

1. Saylovda qatnashish orqali siyosiy hokimiyatga erishishsi va shu siyosiy hokimiyatni amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi.

2. O‘z maqsad va vazifalarni muayyan partiya ustavi, dasturi orqali yuqoridan pastga va tarafdorlariga ta‘sir qila olishi.

3. O‘zida muayyan mafkuralar va g‘oyalar bilan mobillizatsion jarayonlarni amalga oshira olish qobilyatining mavjudligi.

4. Siyosiy ijtimoiylashuv jarayonining generatirini yoqish.¹⁷

Jamoat birlashmalari tushunchasi va ahamiyati. O‘z huquqlari, erkinliklari hamda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir. Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-marifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalar, assotsiatsiyalari va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e‘tirof etiladi.¹⁸ Jamoat birlashmalari muayyan qatlamning manfaatlarini ifodalab, ularning siyosiy irodasi va qarashlarini mujassamlashtiradi, shuningdek, shu asosda ijtimoiy harakatni vujudga keltiradi.¹⁹

Siyosiy hokimiyat tushunchasi va unga doir yondashuvlarda siyosiy hokimiyat portretini tasvirlash. Hokimiyat masalasi zamonaviy siyosatning asosini tashkil etadi. Hokimiyatning muammo va vazifalari doima krenq muhokamalar markazida bo‘lgan. Siyosatshunoslikda siyosiy hokimiyat tushunchasi ko‘p murojaat qilinadigan, o‘rganishlar markazidagi asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Siyosiy hokimiyat- murakkab, sirli va jozibador ijtimoiy-siyosiy hodisa bo‘lib unga nisbatan turli siyosatshunos olimlarning har xil yondashuvlari mavjud. Hokimiyat-kazual tushuncha. U sabab va oqibat natijasidir. (Tomas Gobbs). Hokimiyat-rollar nazariyasi(a,b,c)- ta‘sir qilish,

¹⁷ O‘zbekiston Milliy Universiteti mualliflar jamoasi. Siyosatshunoslik[Matn]: Darslik- Toshkent: Info Capital Books, 2024.-346-348-b.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida” gi 1991-yil 15-fevraldagi 223-XII-sonli qonuni 223-XII-son 15.02.1991. O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/-111825>

¹⁹ X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik: Darslik- Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.-140-b



ishontirish, bo ‘ysindirishdir. (Maks Veber). Hokimyat- bixevoristik tushuncha (Tolkat Parsons). Hokimyat -har bir siyosiy harakatning boshlanish nuqtasi va yakuniy maqsadidir.(Charlz Merriyam). Hokimyat- kuchdir. Kuch esa kuchga bo‘lgan irodadir.(Kamoliddin Mirzaaxmedov)²⁰

Siyosiy jarayon hisoblangan saylov jarayoni va “O‘zbekiston-2030” strategiyasidagi ahamiyati. O‘zbekistonda 2024-yilda bo‘lib o‘tgan saylovlar mamlakatda muhim konstitutsiyaviy islohatlardan so‘ng davom etayotgan o‘zgarishlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur islohatlar o‘laroq ayniqsda, parlament va mahalliy kengashlarning vakolatlari kengaytirilib, qayta taqsimlandi va demokratik tamoyillar mustahkamlandi. Bu esa aholining parlament va mahalliy kengashlar deputatligiga nomzod qo‘yishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirib, O‘zbekiston demokratik ruhining kuchayib borayotganligidan dalolat beradi. Siyosiy partiyalar nomzodlarining xilma-xilligi jamiyatdagi keng doiralar manfaatlarini ifodalshi, siyosiy jarayonda inklyuzivlik va keng qamrovli qarashlarni ilgari surishga yo‘naltirilgan say-harakatlardan dalolga beradi. Bundan tashqari, islohatlar nartijasida mahalliy kengashlar bilan ijro hokimiyati organlari o‘rtasidagi vakolatalrning nomarkazlashtirilishi, saylov tizimining yana ham ijobiy tomonga o‘zgartirishga sabab bo‘ladi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero mazkur jarayon mahalliy hokimyat organlarining vakolatlarini kengaytirish, hsiobdorligini oshirish va demokratik jarayonlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan.²¹ Saylov jarayoning “O‘zbekiston-2030” strategiyasida nazarda tutilgan davlat hokimiyati parlament, hukumat tarkibining yangilinashi modernizatsion islohatlarning asosiy dinamikasini shakllantirishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonning muvafaqqiyatli amalga oshirilganligi hamda bundagi yangi manyovrlarga boy siyosiy texnologiyalarni qo‘llash, shubhasiz “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyotidagi muhim dasturiy transformatsiya bo‘ldi.²²

Tadqiqot usuli va metadologiyasi: “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilanadi.²³ Siyosiy institutlar siyosiy jarayonlarda aniq natijadorlik va samaradorlikni

²⁰ Bo‘tayev.U.X. Siyosatshunoslik[Matn]: Darslik-Toshkent: Info Capital Books, 2024.-136-b.

²¹ “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi. O‘zbekiston: siyosiy islohatlar va saylov-2024: Metodik qo‘llanma-Toshkent: O‘zbekiston, 2024.-5-6-b.

²² D.Ortiqov. Sudyalar kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy maktabi konferensiya. 2023-y. <https://www.academia.edu>

²³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



ko'rsatishi uchun siyosiy tahlil, siyosiy texnologiyalarni qo'llashi maqsadga muvofiq. Shu bilan birgalikda siyosiy institutlar siyosiy texnologiyalardan foydalanishi ularning konvensial (legal) holatini belgilaydi. Rivojlangan davlatlarning hammasida siyosiy texnologiyalar siyosiy hokimyat va davlat boshqaruvi sohasida qo'llaniladi. Davlatimizdagi siyosiy institutlar ham siyosiy jarayonlarda bunday texnologiyalardan monyovrlarga boy holatda qo'llay olishi ularning siyosiy jarayonlardagi aktorlik statusini oshirib berishga xizmat qiladi.²⁴

S(kuchli tomoni)	W(kuchsiz tomoni)
<p>1.Siyosiy institutlar boshqalardan yaxshiroq nima qila oladi?</p> <p>J: Siyosiy institutlar siyosiy jarayonlarda asosiy dvigatellik xususiyatiga ega harakatlanuvchi mexanizm sifatida siyosiy maydonga kiradi.</p> <p>2.Siyosiy institutlar boshqalardan ustun ekanligini qanday namoyon etadi?</p> <p>J: Siyosiy institutlarda hokimyat resurslari, ta'sir etish, ishontirish, bo'ysindirish qobiliyatlari mavjud.</p> <p>3.Siyosiy institutlar qanday qadriyatlarga ega bo'ladi?</p> <p>J: Tuzilmalari, komponent+elementlari, tuzilmaviy-institutsional ko'rinishga, institutsional legitimlik va legallik pozitsiyasiga egadir.</p> <p>4.Boshqa raqobatbardosh komponentlar foydalana olmaydigan resurslar mavjud?</p> <p>J: Bunda : 1-dan Hokimyat resurslari, 2-dan qadriyatiy elementlarda jamlangan resurslari mavjud.</p>	<p>1.Siyosiy institutlar uchun salbiy deb hisoblangan omillar qanday darajada ko'rinishi mumkin?</p> <p>J: Siyosiy institutlarning imidjiga, brendiga, nufuziga, pozitsiyasi va statusining pasayishiga olib kelishi mumkin.</p> <p>2.Siyosiy institutlar jarayonlarda raqobatdosh bo'lish uchun nimalar qilishi kerak?</p> <p>O'zini legal va legitimlik darajasini oshirishi kerak.</p> <p>3.Siyosiy institutlar nimalarni yaxshilashi kerak?</p> <p>Siyosiy jarayonlardagi ishtirokini va ta'sir etish va isloh qilish, tanqid qilish, taklif va tashabbuslar ko'rsatish qobiliyatini yaxshilashi kerak.</p> <p>4.Nima uchun raqobatdosh komponentlar siyosiy institutlardan oldinda?</p> <p>J: Rejalashtirish, taktik bashorat va resurslarni taktik jarayonlarda to'g'ri mobilizatsiya qilish darajasining pastligi va tanqidlarda o'z faoliyatini qayta</p>

²⁴ R.Jumayev, Sh.Yovqochev. Siyosiy texnologiyalar: O'quv qo'llanma. -T.: TDSHI, 2018. – 49-b.



<p>5.Siyosiy institutlar qaysi faoliyat jarayonlarida muvafaqqiyatga erishishi mumkin?</p> <p>J: Siyosiy institutlar strategiyalar, davlat dasturlari, qaror qabul qilish jarayoni rikslarni baholash va boshqarishda, konfliktlarni murosaga keltirishda muhim o‘ringa ega.</p> <p>6.Boshqa komponentlarda yo‘q, siyosiy institutlarda bor imkoniyatlar nima ?</p> <p>J:Boshqaruv richaklari, ta’sir etuvchi resurslar, hokimyat resurslariga ega.</p> <p>7.Siyosiy institutlar qanday ko‘rsatkichlarga ega?</p> <p>J: Bular asosan, qaror qabul qilish jarayoni, boshqaruv dasturi, strategiyalarida samarali xizmat qiladi.</p> <p>8.Nima uchun siyosiy institutlar muhim hisoblanadi?</p> <p>Siyosiy institutlarning funksiyasi, vazifasi doirasidagi xizmatlar taktik jihatdan aniq maqsadli xarakterga ega.</p>	<p>tashkil eta olishning yo‘qligi.</p> <p>5.Siyosiy tashkilotlar qaysi funksiya yoki tuzilmani sifat jihatidan yaxshilashi zarur?</p> <p>J: Nazorat qilish va istiqbolni oldindan prognozlashtirish texnologiyalarini yaxshilashi lozim.</p> <p>6.Siyosiy institutlarning strategik va taktik faoliyatidan qoniqish darajasi qanday darajada ?</p> <p>J: Bu ulardagi muayyan darajada yopiqlik holati va oshkora etmaslikning yashirin xususiyatlari, hisob va nazoratning ishlamasligida ko‘rinadi.</p> <p>7.Siyosiy institutlarning legallik va legitimlikning yo‘qolishi mumkinmi?</p> <p>J: Faoliyatidagi moliyaviy resurslari va mutaxassislarining kamayishi hisoblanadi.</p> <p>8.Siyosiy institutlarning qanday xususiyatlari talabga javob bermaydi?</p> <p>J: Tizimdagi kechikichlar va vaqt bilan vaziyatning kesishmasligi oqibatida siyosiy jarayonlarda faollik darajasini yo‘qotadi.</p>
<p>O(Imkonkyatlari)_</p>	<p>T(Tahdidlar)</p>
<p>1.Siyosiy institutlar siyosiy tizim va siyosiy jarayonlarga ta’siri nimalarda ko‘rinadi?</p> <p>J: Siyosiy tizim va jarayonlarni tashkil etish, harakatini taminlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.</p> <p>2.Siyosiy jarayonlarning o‘zgarishi</p>	<p>1.Siyosiy institutlar faoliyatini namoyon etshda qanday muommolarga duch keliashi mukin?</p> <p>J: Raqobat, tarafdorlarning yetishmasligi, moliyaviy resurslarning kamligi.</p> <p>2.Siyosiy institutlarni siyosiy</p>



siyosiy institutlarga qanday ta'sir qildi yoki qiladi ?

J: Siyosiy institutlarda transformatsion, rekrutsion, repraduksion, sirkulyatsion jarayonlarni amalga oshiradi va bu ular uchun muhim genezisni ta'minlaydi.

3.Siyosiy institutlar rivojlanishi qanday omillarga bog'liq?

J: Siyosiy jarayonlar va hodisalarda muhim pozitsion o'rniga ega bo'lishiga va ishtirok etish darajasiga bog'liq.

4.Siyosiy institutlarning samaradorligini va natijadorligini amalga oshirishda qanday imkoniyatlari mavjud ?

J: Mobilizatsion qobilyati, kommunikatsion qobilyati, integrativ qobilyati, transformatsion va tranzaksion, artikulyatsion, agregatsion qobilyati mavjud.

5.Siyosiy institutlar barcha resurslaridan 100% foyalana oladimi?

J: Siyosiy institutlardagi foydalanuvchi va yo'naltiruvchi elementlar odatda 100/70, 100/85 ko'rinishida resurlarini safarbar etadi.

6. Siyosiy institutlar o'z faoliyatida siyosiy texnologiyalardan samarali foydalana oladimi?

J: 1-dan bu siyosiy texnologiyalarni qo'llashni biladigan mutaxassisleri va xodimlari bo'lishi kerak. 2-dan siyosiy institutlar faoliyatining siyosiy texnologiyaga muvofiqligini ko'rsatuvchi tashqi

darajada raqobat maydonidan chiqarib yuborishi mumkin bo'lgan potensial raqiblar bormi?

J: Bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda tashqi kuchlarning aralashuvi oqibatida yoki ichki muxolif kuchlarning borligi oqibatida bo'ladi. Bo'lishi mumkin emas. Siyosiy institutlar raqobat maydonida kristallik va yopiqlik hamda raqobatchilarni yo'q qilish evaziga o'ziga nisbatan potensial xavfni kamaytiradi.

3.Faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan texnologik o'zgarishlar bormi?

J: Bor. Davlat suverinieteti va konstitutsiyaviy tuzumi xavf ostida bo'lsa. Yo'q Kuchli nazorat va kuzatuvlarning mavjudligi yoki moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlik harakatda qo'llanilishi oqibatida ta'sir etmaydi.

4.Tarafdorlarning orasida siyosiy institutlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar mavjudmi?

J: Mavjud. Legitimliklik pastligi va tranzaksion impulsning yo'qligi .Mavjud emas. Legal mustahkamlangan qoidalar va qonunlarning kuchli ishlashi va bunday holatdan chetga chiqilganlik uchun jazoning muqarrarlik ko'rsatkichlari yuqoriligi.

5.Siyosiy institutlarning qulashiga olib kelishi mumkin bo'lgan kuchli tensensiyalar bormi?



<p>baholovchi tuzilmalar bo‘lishi kerak. Shunda siyosiy institutlar bu texnologiyalarni qo‘llay olishi mumkin.</p> <p>7.Siyosiy institutlar o‘z resurslarini to‘g‘ri taqsimlaydimi?</p> <p>J: O‘z resurslarini to‘g‘ri taqsimlanishi ularning “Resurs+maqsad” standartidan kelib chiqishida ko‘rinadi.</p> <p>8.Siyosiy institutlar o‘z faoliyatini boshqalarga xabardor qiladimi?</p> <p>J: O‘z faoliyatini namoyish qilishi ham, qilmasligi ham mumkin, bunday holatlarda avvalo, ularning legitimligi, legalligi muhim.</p>	<p>J: Agar X(Davlat) nurlari va Y(Jamiyat) nurlari segmentatsiyasida kesishmaslik, va chetga qochish kuzatilsa, legitimlik so‘nadi, revolyutsion evolyutsiya boshlanadi va bu siyosiy institut qulashini muqarrar qilib qo‘yadi.</p> <p>6.Siyosiy institutlar tashqi xavflarga qanchalik zaif?</p> <p>J: Resurlardan foydalana olmay qolish jarayoni boshlanadi, markaziy nazorat nerv sistemasi ishlamay qoladi, tashqi tahdidlarga nisbatan simptomlarni shakllantirib, xurujiy terapiyani o‘zidan o‘tkazadi va oxir-oqibat tahdid g‘alaba qozonadi.</p> <p>7.Tarafdorlarning e‘tirozlari nimalardan iborat?</p> <p>J: Tanqidiy baholashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yolmaslik va tahlillarni rehabilitatsiya qila olmasligining pastligini e‘tirof etish mumkin.</p> <p>8.Davlatning iqtisodiy, siyosiy ijtimoiy vaziyati siyosiy institutlarga qanday ta‘sir qiladi?</p> <p>J: Siyosiy, iqtisodiy,ijtimoiy jarayonlar+siyosiy institutlar dominant va determinant hisoblanadi.</p>
--	--

Siyosiy institutlarning SWOT tahlilida ko‘rib chiqilgan savollari $2+2=4^2$ formulasidan kelib chiqib, Siyosiy institutlar faoliyatiga baho berishimiz mumkin. Bunda S(Kuchli tomonlari) va O(imkoniyatlari) birlashtirilib, “Rivojlanish tendensiyasi”ga ko‘tarilishi mumkin. O(Imkoniyatlari) va T(Tahdidlar) birlashtirilib, muayyan xavflarni kamaytirish mumkin. “Omon qolish” tendensiyasida W(kuchsiz tomonlari) va T(tahdidlar) birlashtirish orqali saqlab qolishi mumkin.²⁵

²⁵ K.Miraaxmedov, Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili: Ma‘ruza-“Siyosiy strategik tahlillar” 2024. 1-3-b.



Xulosa: Hozirgi vaqtda yurtimizda rivojlangan demokratik davlat va inson haq-huquqlari ustuvor boʻlgan fuqarolik jamiyatini barpo etish bilan bogʻliq siyosiy faoliyat va islohatlar jadal olib borilmoqda. Ushbu jarayonda davlat organlari va boshqaruv idoralari bialn birga nodavlat tashkilotlarning yanada kengroq ishtirok etishi esa, jamiyat hayotining demokratik jarayonlar bilan bogʻliq asoslari tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Natijada bu yoʻnalishda jahon andozalariga mos keladigan va jamiyat hayotining barcha sohalari, ayniqsa, jasmiyat va davlat munosabatlarining eng demokratik shakllari uchun asos boʻladigan xalqchil tizimlar va zamonaviy siyosiy tamoyillari shakllanmoqda.²⁶ Har qanday siyosiy jarayonga har doim turli siyosiy institutlar taʼsir qiladi. Boʻlayotgan oʻzgarishlarni tushinishda eng asosiy holat siyosiy jarayon subyektlarining kuchlarini uygʻunligini baholash maqsadga muvofiq.²⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. M.Qirgʻizboyev .Siyosatshunoslik: oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun darslik, -Toshkent “Sharq” , 2024.-146-b.
3. K.mirzaaxmedov. Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlil: Maʼruza. 2024-y. 3-bet.
4. K.Mirzaxmedov. Davlat boshqaruv asoslari: Maʼruza . 2022-y. 2-b.
5. Oʻzbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar toʻgʻrisida” gi 1996-yil 12-dekabrdagi 337-I-sonli qonuni. <https://lex.uz/docs/-54191?ONDATE=07.01.2020>.
6. [X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik: Darslik-Toshkent: “Oʻqituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.-140-b](#)
7. Oʻzbekiston Respublikasining “Jamoat birlashmalari toʻgʻrisida” gi 1991-yil 15-fevraldagi 223-XII-sonli qonuni 223-XII-сон 15.02.1991. Oʻzbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari toʻgʻrisida. <https://lex.uz/docs/-111825>
8. R.Jumayev, Sh.Yovqochev. Siyosiy texnologiyalar: Oʻquv qoʻllanma. -T.: -TDSHI, 2018.- 49-b.

²⁶ Sh.M.Mirziyoyev. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi, - Toshkent: “Oʻzbekiston” 2021. 81-82-b

²⁷K.Mirzaaxmedov, Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili:Maʼruza-“Siyosiy jarayon subyektlari” 2024. 5-6-b.



9. Bo‘tayev.U.X. Siyosatshunoslik[Matn]: Darslik-Toshkent: Info Capital Books, 2024.-136-b.
10. “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi. O‘zbekiston: siyosiy islohatlar va saylov-2024: Metodik qo‘llanma-Toshkent: O‘zbekiston, 2024.-5-6-b.
11. D.Ortiqov. Sudyalar kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy maktabi konferensiya. 2023-y. <https://www.academia.edu>
12. K.Miraaxmedov, Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili: Ma’ruza-“Siyosiy strategik tahlillar” 2024. 1-3-b
13. K.Mirzaaxmedov, Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlili:Ma’ruza-“Siyosiy jarayon subyektlari” 2024. 5-6-b.
14. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi,- Toshkent: “O‘zbekiston” 2021. 81-82-86-b.

